

OLIIY O'QUV YURTIDA GURUH MURABBIYINING KASBIY MAHORATLARI VA XIZMAT VAZIFALARI

Annotatsiya. Ushbu tezisda oliy o'quv yurtlari guruh murabbiylarining talabalar va universitet oldida bajarishi lozim bo'lgan kasbiy mahorat hamda vazifalari haqida so'z boradi. Guruh murabbiyining vazifalari yillik, oylik, semestrlik, hamda kunlik rejalarda aks ettirilgan. Shuningdek, ushbu shaxslarda aks etishi lozim bo'lgan ezgu hamda ijobiy xislatlar ham tezisdan joy olgan.

Kalit so'zlar: guruh murabbiyi, oliy o'quv yurti, barkamol shaxs, ezgu xislat, kasbiy mahorat.

Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda xam ijtimoiy jamiyatning talabi va asosiy masadi bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi ta'lim muassasalarining oldiga yangi demokratik davlatning kadrlarini shakllantirish vazifasini qo'ydi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturida "kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati umumiy intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'lik xamda uzluksiz ta'lim tizimi orqali xar tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishning nazarda tutadi" deb ta'kidlanadi [3].

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" asarida barcha sohadagi tarbiyaviy faoliyatni tubdan o'zgartirish, tarbiyaning shakllanish metodi, shakli va mazmuniga pedagogik texnologiyalarni kiritish, izchil tarbiya berishning samarali yo'llarini yaratish zarurligi alohida belgilab berilgan.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan xolda shuni aytish mumkinki, pedagogik kasb egalariga zarur bo'lgan shaxsiy xislatlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin;

-
- Boshqalarga tushuntirish qobiliyati bilan bog'lik bo'lgan xislatlar
 - Boshqalarga ta'sir o'tkaza olishga doir xislatlar
 - Boshqalarga (talabalarga) o'rnak bo'la oladigan xislatlar
 - O'qituvchi murabbiyning shaxsiy xislatlari: kasbiy mahorati, guruh murabbiysi gardanidagi xizmat vazifalari xamda talabalarining tarbiyasi va faolligi bilan aniqlanadi.
 - Guruh murabbiyining kasbiy mahoratlari:
 - Murabbiyning tashkilotchi sifatidagi faoliyati bilan bog'lik mahoratlari;
 - Talabalarni shaxsiy xususiyatlari va qiziqishlariga mos xolda ta'sir qilish:
 - Turli ishlarni belgilangan muddatda bajarish bo'yicha oqilona taqsimlash:
 - Pedagogik ta'sir metodi bilan bog'lik mahoratlari;
 - Musobaqa, talab, rag'batlantirish, jazo, ishontirish usullaridan foydalanish:
 - Talabalar bilan yakkama-yakka ish oib borish:
 - So'z va ish birligi, javobgarlik, puxtalik.
 - Amaliy mahoratlari
 - Guruh burchaklari va ko'rgazmalari tashkil qila olish:
 - Jismoniy o'yinlar, sayohatlar uyushtirish:
 - Bayramlarni o'tkazish:
 - Birinchi tez tibbiy yordam ko'rsata olish va h.k.
 - Guruh raxbari sifatida faoliyati;
 - Talabalarining aniq vazifalarini belgilash:
 - Kasbiy mahorat darajasini mustaqil ravishda takomillashtirish, o'z ustida ishlash:
 - Aniq tadbirlarni belgilash va o'tkazish rejasini ishlab chiqish:
 - Bajarilgan ishlarni taxlil qilish:

O'z-o'zini asosli baholash, ishning yangi istiqbollarini olish:

Murabbiyning xizmat vazifalari, guruh.

Guruh murabbiyining xizmat vazifalari ular faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasasining yo'nalishiga, xususiyatiga, imkoniyatiga, sharoitiga, talabalarning saviyasi va tarbiyalanganlik darajasiga xamda ularning tashkilotchilik qobiliyatiga, pedagogik mahoratiga asoslangan xolda belgilanadi.

Xar bir guruhda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

Talabalar shaxsini o'rganish;

Guruhda tarbiyaviy jarayon va o'zaro munosabatlarni taxlil qilishni muvofiqlashtirish va yaxshilash;

Guruh tadbirlarini rivojlantirish va o'tkazish, axborot va muloqot soatlarini o'tkazish;

Zaruriyat tug'ilganda guruh talabarining ota-onalari bilan uchrashuv o'tkazish;

Guruhda o'z-o'zini boshqarish faoliyatini pedagogik taqdimoti;

Guruh jurnalini (o'quv jarayoni va murabbiylik) rasmiylashtirish va nazorat qilish;[2]

Guruh murabbiysi ushbu vazifalarni amalga oshirish mobaynida:

Talabalar bilan xamkorlikda guruh ish rejasini tuzadi.

Har kuni;

Darsga qatnashmagan talabalarni darsga qatnashmaslik sababi bilan qiziqadi:

Guruhda o'z-o'zini boshqarish organlariga pedagogik yordam ko'rsatadi:

Guruhdagi navbatchilikni va talabalarning tashqi ko'rinishi, obodonlashtirish va xona tozaligini nazorat qiladi:

Har haftada;

Guruhdagi jurnallarni rasmiylashtirishni hamda mahorat va muloqot soatlarini tuzadi, unda talabalar ishtirokini ta'minlaydi.

Har oyda;

Talabalarni turli tadbirlarda ishtirokini ta'minlaydi.

O'quv xonasini va ajratilgan xududni tozaligini tashkil etadi.

Semester davomida;

O'quv xonasini holatini nazorat qiladi;

Zarurat tug'ilsa ota-onalar yig'ilishini o'tkazadi;

Semester oxirida;

Semestrda o'quv natijalari va guruh talabalari faoliyati taxlil qilinadi;

Semestrda yakun yasaladi;

O'quv yili davomida;

O'quv yili bo'yicha yakuniy natijalar taxlil qilinib, e'lon qilinadi;

O'quv xonasi ta'mirlanadi [1].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, "Ta'lim to'g'risidagi qonunda, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturida " [3] va Mudofaa to'g'risidagi qonunda yosh avlod ongida Vatanga muhabbat, sadoqat, insonparvarlik, rostgo'ylik, va halollik, mardlik va jasurlik, Vatanni himoya qilish va unga e'tiqod, milliy g'urur va insoniylik tuyg'ularini shakllantirish, tarbiyalash oliy o'quv yurti murabbiyining ham vazifalaridan biri ekanligi aloxida ta'kidlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. *Sodiqova T.* Murabbiy kim? T. Toshkent Islom Universiteti. 2006-yil
2. *Mahmudov N.M., Darslik T.* O'qituvchining nutq madaniyati. O'zbekiston Milliy kutubxonasi 2007.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi qonuni. T. 1997-yil